

“Pishgan nok” natyurmorti



Natyurmort bilan tanishishda davom etamiz. Biz allaqachon bilamizki, natyurmortda rassomlar turli narsalar: **mevalar**, **sabzavotlar**, **gullar** va **idishlarni** tasvirlashadi.

Nok – chiroyli va mazali meva. O‘zbekiston bog‘larida nokning yashil, sariq, tillarang, qizg‘ish kabi rang-barang tuslari bilan kishini hayratga soladigan turli navlari yetishtiriladi. Shuning uchun nok ko‘pincha rasm chizish uchun qiziqarli obyektga aylanadi. Uning shakli noodatiy: pastki qismi yumaloq va keng bo‘lib, yuqoriga qarab torayib boradi. Agar nokka diqqat bilan qarasangiz, u hech qachon bir xil rangda bo‘lmastligini payqaysiz. Unda sariq, yashil, to‘q sariq va jigarrang tuslar birlashib ketadi.



Natyurmort buyumlarga sinchkovlik bilan qarashni o‘rgatadi. Hattoki oddiy nok ham, agar uning shakli, rangi, soyasi va mayda detallariga e‘tibor berilsa, juda go‘zal ko‘rinishi mumkin.



Bugun siz **Pishgan nok** natyurmortini chizasiz.

Rasm chizish bosqichlari:

1. **Xomaki chizgi.** Varaqni tik holatda qo‘ying. Yengil chiziqlar bilan bitta katta nok, uning yarmi hamda bargli novdalarni belgilab oling.
2. Avval **fonni tayyorlab oling**: yuqori qismini och sariq, stolni esa siyohrang yoki pushtiroq rangda qiling. So‘ngra **noklarni bo‘yang**. Sariq, yashil, to‘q sariq va biroz jigarrang tuslardan foydalaning.
3. **Detallashtirish.** Nok hajmli ko‘rinishi uchun bir rangning turli tuslarini qo‘llang: yorug‘lik tushib turgan joyga och, soyaga esa to‘q tus bering. Katta nokning jilosini ko‘rsating. Yarimta nokni och, urug‘larini esa jigarrang bo‘yoq bilan bo‘yang. Barglar uchun yashil rangning har xil tuslaridan foydalaning.
4. **Yakunlash.** Mayda detallarni qo‘shing: noklar hajmli ko‘rinishi uchun ularning tagiga soya chizib qo‘ying.

1



2



3



4

